

O‘zbekistonda elektron biznesni rivojlantirish

Azimov Shahriyor Yo‘ldosh O‘g‘li

Abu Rayxon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti bakalavr talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida elektron biznes (e-biznes) sohasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta‘sirini chuqur tahlil qiladi. Unda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdo, elektron to‘lov tizimlari, onlayn xizmat ko‘rsatish platformalari va elektron logistika tizimlarining joriy holati hamda ularni takomillashtirish yo‘llari keng yoritilgan. Maqolada e-biznesning yurtimizda keng rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar — internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, aholining raqamli savodxonlik darajasining pastligi, normativ-huquqiy bazaning takomillashuvga muhtojligi kabi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: electron biznes, globallashtirish, avtomatlashtirish, mobil to‘lov tizimi, kiberxavfsizlik

Аннотация: Данная статья посвящена анализу становления, этапов развития электронной коммерции (e-бизнеса) в Республике Узбекистан, а также её влияния на экономические и социальные процессы. В ней широко освещены текущее состояние и пути совершенствования электронной торговли, электронных платёжных систем, онлайн-сервисов и систем электронной логистики в условиях цифровой экономики. В статье рассматриваются основные проблемы, препятствующие широкому развитию e-бизнеса в нашей стране — недостаточное развитие интернет-инфраструктуры, низкий уровень цифровой грамотности населения, а также необходимость совершенствования нормативно-правовой базы.

Ключевые слова: электронный бизнес, глобализация, автоматизация, мобильные платёжные системы, кибербезопасность

Annotation: This article analyzes the formation, stages of development, and the impact of electronic business (e-business) on economic and social processes in the Republic of Uzbekistan. It provides a comprehensive overview of the current state of e-commerce, electronic payment systems, online service platforms, and electronic logistics systems in the context of the digital economy, as well as the ways to improve them. The article also examines key obstacles hindering the widespread development of e-business in the country, such as underdeveloped internet infrastructure, the low level of digital literacy among the population, and the need for further improvement of the regulatory and legal framework.

Key words: electronic business, automation, globalization, mobile payment systems, cybersecurity

Kirish

Globalizatsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bugungi dunyo iqtisodiyotida yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, elektron biznes (e-biznes) modeli ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy o‘sinh va samaradorlikka hissa qo‘shayotgan muhim omillardan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmay, elektron savdo va xizmat ko‘rsatish sohasini faol ravishda rivojlantirmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda raqamlashtirish siyosati doirasida qabul qilingan strategiyalar e-biznes uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda elektron biznesning mohiyati, afzalliklari, mavjud holati, imkoniyatlari, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi. Elektron biznes nima va uning afzalliklari qanday degan savol paydo bo‘ladi?

Elektron biznes va uning afzalliklari.

Elektron biznes — bu internet texnologiyalari yordamida savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish, mijozlar bilan aloqa, marketing va boshqaruv jarayonlarini yuritishdir. An’anaviy tadbirkorlikdan farqli o‘laroq, e-biznes bir nechta muhim afzalliklarga ega:

Qulaylik va tezkorlik: Mahsulot yoki xizmatlarni istalgan vaqtda va joyda xarid qilish imkoniyati mavjud. Masalan, mijozlar uyidan chiqmagan holda mobil ilovalar orqali mahsulot buyurtma qilishi mumkin.

Kam xarajatli boshqaruv: E-biznes modellarida do‘kon ijarasi, xodimlar soni, reklama va logistika xarajatlari an’anaviy usullarga nisbatan ancha kam bo‘ladi.

Mijozlar doirasining kengayishi: Mahsulotlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorlar orqali ham sotilishi mumkin. Bu eksport salohiyatini oshiradi.

Avtomatlashtirilgan jarayonlar: Elektron to‘lov tizimlari, chatbotlar, CRM tizimlar orqali mijozlar bilan aloqa va savdo jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Yangi O‘zbekistonda elektron biznes holati.

O‘zbekistonda elektron biznes so‘nggi yillarda izchil rivojlanmoqda. Internetga kirish imkoniyatlarining kengayishi, mobil to‘lov tizimlarining ommalashuvi va aholi orasida texnologiyalarga bo‘lgan qiziqish bu jarayonni tezlashtirmoqda. Misol uchun: Uzum Market – O‘zbekistonning eng yirik onlayn savdo platformalaridan biri bo‘lib, kundalik ehtiyojlar uchun keng assortimentda mahsulotlar taklif etadi. Asaxiy, Book.uz, ZoodMall – kitoblar, elektronika, kiyim-kechak kabi yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi yirik e-biznes loyihalari. Transport va xizmat ko‘rsatish – Yandex Go, MyTaxi, Express24 kabi platformalar orqali elektron xizmatlar bozori kengaymoqda.

Davlat tomonidan ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron xizmatlar soni va sifati oshirilmoqda. Shuningdek, soliq imtiyozlari, “yagona oyna” tizimi va elektron hujjat aylanishi kabi islohotlar tadbirkorlikni qulaylashtirmoqda.

O‘zbekistonda elektron biznes kirib kelishi nafaqat davlat sektoriga balki xususiy sektorga ham ijobiy ta‘sir qilib yirik, o‘rta va yakka tartibdagi tadbirkorlarga mijozlar bilan muloqot qilish va bozor munosabatlarida ijobiy xarakter qilish, shuningdek boshqa korxonalar bilan raqobatlashish imkonini yaratdi. O‘zbekiston e-biznes rivojlanishi uchun bir qancha ijobiy omillarga ega:

Texnologiyaga qiziqadigan yoshlar sonining ortishi – bu yangi startaplar va innovatsion g‘oyalar paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

Mobil to‘lov tizimlarining keng qo‘llanishi (Click, Payme, Apelsin) – xarid qilish jarayonini tez va qulay qiladi.

Davlat siyosatining qo‘llab-quvvatlashi – qonunchilikdagi soddalashtirishlar, subsidiyalar va imtiyozlar investorlarni jalb qilmoqda.

Tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi – onlayn ro‘yxatdan o‘tish, soliqqa tortish tizimi soddalashtirilmoqda. Agar bu omillar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, O‘zbekiston yaqin kelajakda Markaziy Osiyodagi elektron savdo markaziga aylanishi mumkin.

Elektron biznesdagi muammo va to‘siqlar.

Shunga qaramay, elektron biznes rivojiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud: Internet infratuzilmasining zaifligi – ayniqsa qishloq joylarda internet tezligi va sifati past. Raqamli savodxonlikning pastligi – aholining



katta qismi internetda xarid qilish yoki karta orqali to'lov qilish bo'yicha yetarli bilimga ega emas. Kiberxavfsizlik tahdidlari – firibgarlik holatlari, maxfiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi ishonchni kamaytiradi. Qonunchilikdagi bo'shliqlar – yangi texnologiyalarga mos qonunlarning yo'qligi yoki sekin qabul qilinishi muammo tug'dirmoqda.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda elektron biznes rivojlanish yo'lida faol harakatlar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, internet xizmatlarining takomillashuvi, aholining texnologiyaga bo'lgan ishonchi va talabining ortishi bu sohaning istiqbolini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish – xususan, internet infratuzilmasini mustahkamlash, raqamli savodxonlikni oshirish va huquqiy asoslarni yangilash – muhim ahamiyatga ega. Agar bu yo'nalishlar bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O'zbekiston elektron biznesning mintaqaviy yetakchilaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdurahmonov Q.X. Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Jo'rayev M.M., Xalilova M.S. Elektron tijorat asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
3. To'raev S.T. Axborot texnologiyalari va elektron hukumat. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
4. Karimov M.M. Iqtisodiyotda raqamli transformatsiya. – Toshkent: “IQTISODIYOT”, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi PQ–3832-sonli Qarori – “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi.

Research Science and
Innovation House

